

“ALKIMYOGAR” ROMANING RAMZIY FALSAFIY TAHLILI

Jalilova Shohida Ravshan qizi

Termiz Iqtisodiyot va Servis universiteti
Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar
fakulteti (o'zbek tili) yo'nalishi 2-bosqich talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15783025>

Annotatsiya

Paulo Koeloning “Alkimyogar” romani bu orzu, taqdir, o'zlik va ruhiy izlanish haqida hikoya qiluvchi falsafiy badiiy asardir. Asar qahramoni ispan cho'pon yigit Santyugoning o'z shaxsiy afsonasini ya'ni hayotdagi chin maqsadini topish yo'lida bosib o'tgan ruxiy va jismoniy sayohati aks etadi. “Alkimyogar” – bu oddiy syujet ortida yashiringan chuqur ma'naviy g'oyalar timsoli va tasavvufiy qarashlarga boy roman bo'lib, unda har bir insonning yuragida yashirin orzulari, ularga eltuvchi belgilari, va bu yo'ldagisinovlari borligi ta'kidalanadi. Koelo bu asar orqali insonni o'z hayoti haqida chuqur mulohaza qilishga, qalbini tinglashga va orzularidan hech qachon voz kechmaslikka chorlaydi.

Kalit So'zlar

Shaxsiy afsona, maqsad sari intilish, ruhiy sayohat, ichki uyg'onish, hayotiy maqsad, Koelo uslubi

Аннотация

Роман Пауло Коэльо «Алхимик» — философское художественное произведение, повествующее о мечтах, судьбе, идентичности и духовных поисках. В произведении описывается духовное и физическое путешествие испанского пастушка Сантьяго, героя произведения, в поисках своей личной легенды, то есть своего истинного предназначения в жизни. «Алхимик» — роман, богатый мистическими взглядами и символ глубоких духовных идей, скрытых за простым сюжетом, подчеркивающий, что у каждого человека есть скрытые мечты в сердце, знаки, ведущие к ним, и препятствия на этом пути. В этом произведении Коэльо призывает человека глубоко задуматься о своей жизни, прислушаться к своему сердцу и никогда не отказываться от своих мечтаний.

Ключевые Слова

Личная легенда, стремление к цели, духовное путешествие, внутреннее пробуждение, жизненное предназначение, стиль Коэльо

Abstract

Paulo Coelho's novel "The Alchemist" is a philosophical work of fiction that tells the story of dreams, destiny, identity, and spiritual quest. The work depicts

the spiritual and physical journey of the Spanish shepherd boy Santiago, the hero of the work, to find his personal legend, that is, his true purpose in life. "The Alchemist" is a novel rich in mystical views and a symbol of deep spiritual ideas hidden behind a simple plot, emphasizing that every person has hidden dreams in his heart, signs leading to them, and obstacles on this path. Through this work, Coelho encourages a person to deeply reflect on his life, listen to his heart, and never give up on his dreams.

Keywords

Personal legend, striving for a goal, spiritual journey, inner awakening, life purpose, Coelho's style

Zamonaviy adabiyotda inson qalbi va ruhiyatini yoritishga qaratilgan falsafiy - badiiy asarlar orasida Paulo Koeloning "Alkimyogar" romani alohida o'rin tutadi.

Asarda insonning o'z taqdiri, orzusi va ichki ovozi tinglash yo'lidagi izlanishlari hayotiy timsollar vositasida chuqur tasvirlangan. "Kimyogar" - bu nafaqat bir yigitning uzoq safarga chiqqan sayohati, balki har bir odamning yuragida yashirin bo'lgan, "Shaxsiy afsona" ni topishga bo'lgan chaqiriqdir.

Muallif real voqealar ortiga ramziy ma'nolarni joylashtirib, insonni o'z hayoti va orzulari haqida mushohada qilishga undaydi. Ushbu maqolada asardagi asosiy g'oya, falsafiy qarashlari, timsollari turi va shaxsiy afsona konsepsiyasining adabiy ifodasi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar Tahlili

Poulo Koeloning "Alkimyogar" romani - zamonaviy, falsafiy, badiiy adabiyot namunasi sifatida dunyo miqyosida katta shuhrat qozongan asarlaridan biridir. Asar markazida Ispan cho'pon yigit Santiyugo turadi. U Misr piramidalari yonida yashiringan xazinani topish uchun uzoq va mashaqqatli safarga o'tlanadi. Biroq bu safar nafaqat jismoniy yo'l, balki ma'naviy va ruhiy o'sishni aks ettiruvchi timsollarga boy sayohatdir. Romanning asosiy g'oyasi har bir insonda "shaxsiy afsona" borligi va o'z taqdirini anglab orzusi sari intilish kerakligi haqidadir.

Santiago obrazi orqali muallif qalb ovoziga quloq tutish, o'z hayot yo'lini topish va orzulari uchun kurashish zarurligini eslatadi. Asarda tez-tez uchraydigan ramzlar - xazina, cho'l, kimyogar, alomatlar (belgilar), shamol va yurak - insonning ichki holati, shubha, ishonch, xavf va ma'naviy uyg'onish timsollaridir.

Koeloning yozuv uslubi soddaligi bilan ajralib turadi, ammo bu soddalik ortida chuqur ma'naviy qatlamlar yashiringan. U Sharq falsafasi, g'arbiy motivlar va zamonaviy psixologik tafakkurni birlashtirgan holda universal va ta'sirli

obrazlar yaratgan. "Alkimyogar" romanida har bir epizod ramziy ma'noga ega bo'lib, bu asarni nafaqat badiiy, balki ruhiy tarbiya beruvchi asar sifatida ham qadrlashga sabab bo'ladi.

Asarda "taqdir" va "erkinlik" o'rtasidagi ziddiyat ham muhim o'rin egallaydi. Santiago o'z yo'lida turli sinovlarga duch keladi, ammo bu sinovlar uni zaiflashtirmaydi, aksincha o'zini anglashga, kuchliroq bo'lishga olib keladi. Muallif bu orqali inson o'z taqdirining egasi ekanini va to'sqinliklarga qaramay, o'z yo'lini topishi mumkinligini targ'ib qiladi.

Muhokama

"Alkimyogar" romanining muallif faoliyati uning soddaligi ortidagi chuqur ma'naviy mazmunda yashiringan. Asar ko'pchilikni odatiy voqealar bilan emas, balki ichki ruhiy izlanish, orzular va ularni ro'yobga chiqarish uchun kurash haqida o'ylashga undaydi.

Santiago safar davomida turli odamlar bilan uchrashadi - bu odamlarning har biri hayot falsafasi, orzu va tanlov timsoli sifatida maydonga chiqadi. Ayniqsa, "Alkimyogar" obrazi orqali muallif inson o'zgarishga qodir, hayotni "Oltin"ga aylantira oladigan kuchga ega degan g'oyani ilgari suradi.

Asarda Sharq va G'arb ruhiyatining uyg'unlashuvi ham kuzatiladi. G'arbdagi realistik tafakkur va Sharqdagi tasavvufiy falsafa sentizida yozilgan bu roman o'z insoniga universal haqiqatni eslatadi.

Xulosa

"Alkimyogar" romani - bu insoniy orzu, qalb ovozi va taqdir sari intilishni madh etuvchi ruhiy falsafiy asardir. Muallif Santiago obrazi orqali shuni ko'rsatadiki, har bir inson ichida yashirin bir xazina - ya'ni uning orzusi, maqsadi bor. Ushbu xazina sari borish yo'li oson emas, sinovlar, shubhalar, tanlovlar bilan to'la. Ammo ana shu yo'lning o'zi insonni o'zgartiradi, kamolga yetkazadi, haqiqatga olib boradi. Koelo bu asari orqali o'zlikni anglash, ruhiy uyg'onish va hayot ma'nosini topish yo'lidagi eng oddiy, ammo eng muhim haqiqatlarni chuqur badiiy ifoda etgan.

foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibrohim G'afurov bilan intervyu. Badiiy tarjima nusxa ko'chirish emas//O'zbekistonda xorijiy tillar - 2015
2. Ahmad Otaboy, "Alkimyogar" b.13.
3. Poulo Koelo, translated by Alan R. Clarke, the Alchemist, perfectbaund, p.7..